Universitet Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi majlisi 13-sonli
bayonnomasiga
2-ILOVA

Mazkur nizomga kiritilgan o‘zgartirishlar:
Universitet Kengashining 2026-yil 11-sentabrdagi 3-sonli bayonnomasining 1-ilovasi

Toshkent davlat yuridik universitetining 2025-2030-yillarda talabalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi

Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasining ta’limga oid qonunchilik hujjatlari va Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

Strategiya 2025-2030-yillar uchun Toshkent davlat yuridik universitetining talabalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategik yondashuvi va ustuvorliklarini belgilaydi.

I bob. Umumiy qoidalar

Toshkent davlat yuridik universitetining talabalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyasi uni 2030-yilgacha amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Strategiya universitet talabalari uchun ularni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni belgilaydi. Xususan, strategiya quyidagilarni ta’minlashga qaratilgan:

talabalar jamoasining xilma-xilligini hisobga olgan holda TDYUda talabalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlari ko‘lami, sifati va samaradorligini oshirish;

talabalarni zamonaviy va samarali tarzda qo‘llab-quvvatlash uchun xodimlar salohiyati va imkoniyatlarini kengaytirish.

Yuqoridagi vazifalarga erishish uchun quyidagi to‘rtta yo‘nalishda tegishli ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bunda har bir yo‘nalishning maqsad va vazifalari mavjud. Xususan, mazkur yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Akademik va karyera yo‘nalishida qo‘llab-quvvatlash.
2. Nogironligi bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash.
3. Moliyaviy sohada va ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash.
4. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini boshqarish, monitoring qilish, va kadrlar malakasini oshirish.

Mazkur strategiya talabalar, professor-o‘qituvchilar va xodimlardan iborat keng ko‘lamdagi manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan. Strategiya universitetning talabalarni qo‘llab-quvvatlashga doir boshqa

ichki hujjatlari, shu jumladan, tyutorlar faoliyatiga doir nizom bilan birgalikda o‘qib chiqilishi zarur.

II bob. Talabalarni akademik va karyera yo‘nalishida qo‘llab-quvvatlash

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

talabalarda amaliy tajriba va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan holda, karyera bo‘yicha keng qamrovli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi va qo‘llab-quvvatlaydi;

talabalarni ko‘proq amaliyotdagi mutaxassislar va tajribasi yuqoriroq tengdoshlari bilan muloqot qilishga jalb etadi;

universitet bitiruvchilari bilan aloqalarni o‘rnatish (networking) va bitiruvchilar bilan tajriba almashinuvini ta’minlashga xizmat qiladigan bitiruvchilar hamjamiyatini shakllantiradi.

Strategik vazifalar.

Karyera xizmatlar doirasini kengaytirish. Barcha talabalar, jumladan magistratura, sirtqi ta’lim va nogironligi bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish. Bu amaliyot o‘tash, mahorat darslari va karyera bo‘yicha maslahatlar berishni o‘z ichiga oladi. Talabalarga rezyume yozish, suhbatga tayyorgarlik ko‘rish va ish qidirish bilan bog‘liq masalalarda qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar va mashg‘ulotlar ko‘lamini kengaytirish.

Mentorlik dasturlari. Talabalarga amaliyotchi mutaxassislardan, tajribali talabalardan tajriba orttirish imkonini beradigan hamda akademik va kasbiy aloqalarni o‘rnatishga yordam beradigan mentorlik dasturlarini ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish.

Bitiruvchilar bilan aloqa o‘rnatish. Universitetdagi o‘zgarishlar, imkoniyatlar va tadbirlar haqida ma’lumot hamda yangiliklarni yetkazish, universitet imkoniyatlaridan cheklangan va maqbul tarzda foydalanish hamda aloqalar o‘rnatish imkoniyatini beradigan bitiruvchilar uchun tashkiliy guruh tuzish.

III bob. Nogironligi bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

Nogironligi bo‘lgan talabalar uchun qulay o‘quv va jismoniy muhitni ta’minlagan holda barcha obyektlar, resurslar va dasturlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi;

Yevropa oliy ta’lim makonida nogironlik tushunchasi qanday talqin qilinishi bo‘yicha xodimlar bilimini oshiradi.

Strategik vazifalar.

Maxsus resurslar va foydalanish uchun qulaylik yaratish. Ko‘zi ojiz talabalar uchun yuridik adabiyotlar va o‘quv qo‘llanmalarini, masalan, Brayl yozuvidagi materiallar va skrin-rider (ekran o‘qigich)larni joriy etish hamda Toshkent davlat yuridik universitetining 2025-2030-yillar uchun ko‘chmas mulk va ta’lim resurslari bo‘yicha strategiyasiga muvofiq kampus inshootlarida jismoniy foydalanish imkoniyatini ta’minlash.

Nogironligi bo‘lgan talabalarni yotoqxona bilan imtiyozli ta’minlash hamda ularda erkin harakatlanish imkoniyatini yaratish. Nogironligi bo‘lgan talabalarga yetarli darajadagi qulayliklar va kirish imkoniyatlari bilan jihozlangan turar joylar birinchi navbatda berilishini kafolatlash.

Qo‘shimcha ehtiyojlarni aniqlash. Xodimlarga yashirin o‘zlashtirish imkoniyati cheklangan talabalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha treninglar o‘tkaziladi.

Nogironligi bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qoidalarni kodifikatsiya qilish. Universitet nogironligi bo‘lgan talabalar uchun mavjud qo‘llab-quvvatlash va ular uchun moslashuvchanlikni ta’minlashga qaratilgan choralarni qo‘llashga doir qoidalarni yozma tarzda belgilaydi.

IV bob. Moliyaviy sohada va ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

talabalar farovonligini qadrlaydigan, qo‘llab-quvvatlovchi jamoani shakllantiradi;

talabalarni o‘qishni davom ettirishi va muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy yordam dasturlarini taklif qiladi.

Strategik vazifalar.

Yo‘naltirish va maslahat berish. Talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlariga muvofiq ularga noakademik, shu jumladan, ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini joriy etish.

Onlayn resurslar. Veb-sayt, virtual ta’lim muhiti va boshqa platformalarda talabalarni moliyaviy, noakademik hamda psixologik masalalarda qo‘llab-quvvatlashga doir turli ma’lumotlar doirasini kengaytirish.

Moliyaviy yordam va stipendiyalar. Moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar, xususan, ota-ona qaramog‘isiz qolganlar uchun tizimli moliyaviy

ko‘maklash dasturlari yaratiladi. Bunda, stipendiyalar orqali akademik yutuqlar e’tirof etilishi va akademik muvaffaqiyatga erishish qo‘llab-quvvatlanishi kerak bo‘ladi.

V bob. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil qilish, monitoring qilish va kadrlar malakasini oshirish

Maqsadlar.

2030-yilga qadar universitet:

talabalarni qo‘llab-quvvatlashni universitetning boshqaruv tizimida asosiy e’tibor qaratilgan soha sifatida joriy etadi;

Toshkent davlat yuridik universitetida sifatni ta’minlash haqida nizomga muvofiq talabalarni qo‘llab-quvvatlash sifatini monitoring qilish bilan bog‘liq samarali mexanizmlarni joriy etadi;

talabalarni qo‘llab-quvvatlash universitet xodimlarini malakasini oshirish dasturlarining ajralmas qismi aylanishini ta’minlaydi.

Strategik vazifalar.

Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasini shakllantirish. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash sohasida aniq vazifa va vakolatlarga, samarali hamda ahamiyatli kun tartibiga ega bo‘lgan, faoliyati talabalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maxsus qo‘mitani shakllantirish.

Sifat jarayonlarining ajralmas qismi sifatida talabalarni qo‘llab-quvvatlash. Talabalarni qo‘llab-quvvatlashni sifatni ta’minlash jarayonlariga singdirish. Bunda, ushbu jarayon talabalar qabulidan to bitiruvga qadar bo‘lgan davr (student lifecycle)ni nazarda tutadi.

Uzluksiz professional rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi. Sifatni ta’minlash jarayonida xodimlarning talabalarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ehtiyojlari hamda e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan zarur sohalarni aniqlash, shuningdek ularni professional rivojlanish bilan bog‘liq dasturlar va imkoniyatlarga singdirilishini ta’minlash.

VI bob. Strategiyani amalga oshirish va monitoring qilish

Universitet kengashi mazkur strategiyani amalga oshirish bo‘yicha umumiy javobgarlikka ega.

Strategiyada nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, uning ijrosini ta’minlash va monitoring qilish Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi zimmasiga yuklatiladi.

Shuningdek, quyidagi ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar zimmasiga strategiyada nazarda tutilgan quyidagi vazifalarni amalga oshirish yuklatiladi:

1. Akademik yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq vazifalar − O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi).

2. Karyera yo‘nalishida qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq vazifalar − Bandlik (karyera) bo‘limi.

3. Nogironligi bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq vazifalar − Ekspluatatsiya va ta’mirlash boshqarmasi, Fakultetlar.

4. Moliyaviy sohada qo‘llab-quvvatlash − Buxgalteriya, Fakultetlar.

5. Ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlash − Universitet psixologi va Fakultetlar.

6. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini boshqarish, monitoring qilish va kadrlar malakasini oshirish bilan bog‘liq vazifalar − Yoshlar masalalari va sportni ommalashtirish boshqarmasi, Bandlik (karyera) bo‘limi, Buxgalteriya, Fakultetlar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’muriy tarkibiy bo‘linmalar mazkur strategiyaning o‘z faoliyatiga taalluqli qismi bilan bog‘liq maqsad va vazifalarga erishish uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Chora-tadbirlar loyihalari tegishincha Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasiga muhokama qilish uchun taqdim etiladi.

Qo‘mita tomonidan muhokama qilingan va ma’qullangan loyiha strategiyani amalga oshirishga qaratilgan yagona chora-tadbirlarga birlashtiriladi. Chora-tadbirlar tasdiqlash va keyinchalik nazorat qilib borish uchun Universitet kengashiga taqdim etiladi.

Talabalarni qo‘llab-quvvatlash qo‘mitasi chora-tadbirlarning ijrosi ustidan monitoringni amalga oshirib boradi.

Chora-tadbirlar moliyaviy xarajatlarni nazarda tutgan taqdirda, universitetning xarajatlari smetasiga kiritiladi.

VII bob. Yakuniy qoidalar

Mazkur strategiya har uch yilda bir marotaba qayta ko‘rib chiqiladi hamda talab etilganda zarur o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.